











#BuxDU_yangiliklari

   **“TO'MARIS IZDOSHLARI” nomli sport bellashuvlari o'tkazildi.**

Buxoro davlat universiteti “Xotin-qizlar bilan ishlash” bo'limi, BuxDU "Sport" klubi hamda Milliy gvardiya bilan hamkorlikda “To'maris izdoshlari” nomli sport bellashuvlari o'tkazildi.






Sport musobaqalarida Buxoro davlat universitetining Jismoniy tarbiya va sport, Tarix va yuridik, San'atshunoslik va pedagogika, Filologiya, Fizika-matematika va axborot texnologiyalari, Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultetlari talaba – qizlaridan tashkil topgan jamoalar ishtirok etdilar. Ushbu musobaqada 60 dan ortiq talaba-qizlar jalb qilindi.

Bellashuvda quyidagi natijalar qayd etildi:

-  **1-o'rin – Jismoniy tarbiya va sport fakulteti talaba-qizlar I jamoasi;**
-  **2-o'rin – Filologiya fakulteti talaba-qizlar jamoasi;**
-  **3-o'rin – Jismoniy tarbiya va sport fakulteti talaba-qizlar II jamoasi qo'lga kiritdi.**

Ushbu musobaqani yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazishda o'z hissasini qo'shgan Jismoniy tarbiya va sport fakulteti xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi M.A.Fatullayeva va “Sport faoliyati” kafedrasida professor-o'qituvchilariga alohida minnatdorlik bildiramiz.

Bizni kuzatishda davom eting: 

 [Telegram](#)  [Instagram](#)  [Facebook](#) 
[Web-sayt](#)  [Youtube](#)

